**"OQ Mem 2" AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI**

Toshkent shahri

## 1. UMUMIY QOIDALAR

**1.1.** "**OQ Mem 2**" aksiyasini o‘tkazish qoidalari (keyingi o‘rinlarda - "Qoidalar") "**OQ Mem 2**" aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - "Aksiya") o‘tkazish tartibini, Aksiyada ishtirok etish shartlarini, G‘oliblarni aniqlash tartibini, shuningdek sovrinlar hamda ularni G‘oliblarga topshirish tartibi va shartlarini belgilaydi.

**1.2.** Aksiya "OQ" tovar belgisi hamda "OQ" tovar belgisi ostida uyali aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi "UNITEL" MChJ (keyingi o‘rinlarda - "OQ") xizmatlarini ommalashtirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi tadbir bo‘lib, OQ tashkil etilganining uch yilligiga bag‘ishlangan.

**1.3.** Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi, chunki G‘oliblar tasodifiy tanlovsiz, ushbu Qoidalarning 4-bo‘limiga muvofiq Tanlov postlarining Ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi. Aksiya Ishtirokchilari Aksiyada qatnashish munosabati bilan mulkiy tavakkalchilikka duch kelmaydi. Aksiyada ishtirok etish bepul.

**1.4. Aksiya Tashkilotchisi**: O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan, O‘zbekiston Respublikasi, 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Tepamasjid ko‘chasi, 4-uy manzilida joylashgan "UNITEL" mas’uliyati cheklangan jamiyati (keyingi o‘rinlarda - "Tashkilotchi" yoki "Kompaniya").

**1.5.** Ushbu Qoidalarda quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

1.5.1. **Foydalanuvchi** – OQ Mobile mobil ilovasidan foydalanuvchi jismoniy shaxs;

1.5.2. **G‘olib** – sovrin yutib olgan Aksiya Ishtirokchisi;

1.5.3. **Ishtirokchi** – Aksiyada qatnashish uchun ro‘yxatdan o‘tgan va ushbu Qoidalar talablariga javob beradigan Foydalanuvchi;

1.5.4. **"OQ Mobile" ilovasi** – Foydalanuvchi va Tashkilotchi o‘rtasida axborot hamda texnologik hamkorlikni ta’minlashga mo‘ljallangan maxsus kompyuter dasturiy mahsulotlari majmuasidan iborat axborot tizimi;

1.5.5. **Kompaniyaning rasmiy sayti** – Kompaniyaning oq.uz manzilidagi rasmiy veb-sayti;

1.5.6. **Kompaniyaning Telegram-kanali** – Kompaniyaning Telegram messenjeridagi t.me/oqmobile manzilida joylashgan rasmiy kanali;

1.5.7. **Kompaniyaning Instagram sahifasi** – Kompaniyaning Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi instagram.com/oq.mobile manzilida joylashgan rasmiy sahifasi.

1.5.8. **Mem** – Ishtirokchi tomonidan Tanlov postiga joylashtiriladigan kulgili yoki boshqa mazmundagi vizual yoxud animatsion kontent (jumladan, rasm, GIF-animatsiya, video va Instagram ijtimoiy tarmog‘ida post sifatida joylashtirish mumkin bo‘lgan boshqa format);

1.5.9. **Tanlov posti** – Ishtirokchi tomonidan Aksiya davomida Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi o‘z sahifasida Kompaniyaning Instagram sahifasini belgilagan holda joylashtirilgan, OQning uch yilligi bilan tabriklovchi Memni o‘z ichiga olgan va Aksiyada ishtirok etish uchun asos bo‘ladigan post;

1.5.10. **Ko‘rsatkichlar** – Instagram ijtimoiy tarmog‘i foydalanuvchilari tomonidan Aksiya davomida Tanlov posti ostida qoldirilgan va ushbu Qoidalarning 4-bo‘limiga muvofiq hisobga olinadigan "Yoqdi" (layk) belgilari hamda izohlar.

**Aksiya o‘tkaziladigan davr:**

- Aksiya boshlanish sanasi: 2026-yil 2-noyabr, Toshkent vaqti bilan soat 00:00:01 dan;
- Aksiya tugash sanasi: 2026-yil 19-noyabr, Toshkent vaqti bilan soat 23:59:59 gacha.

**1.6.** Aksiya Qoidalari Tashkilotchi tomonidan Kompaniyaning rasmiy saytida e'lon qilinadi, shuningdek Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra OQ mobil ilovasida va/yoki boshqa resurslarda (ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va hokazo) joylashtirilishi mumkin.

**Aksiya o'tkaziladigan hudud** - O'zbekiston Respublikasi hududi. Ushbu Qoidalar talablariga javob beradigan jismoniy shaxslar Aksiya Ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Aksiyada ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish OQ Mobile ilovasi orqali, Tanlov postini joylashtirish va ovoz berish esa Instagram ijtimoiy tarmog'ida amalga oshiriladi.

Aksiya Instagram ijtimoiy tarmog'i va Meta Platforms, Inc. kompaniyasi tomonidan homiylik qilinmaydi, qo'llab-quvvatlanmaydi yoki boshqarilmaydi. Ular Tashkilotchi bilan bog'liq emas va Aksiyaning o'tkazilishi uchun javobgar emas. Ishtirokchi Instagram ijtimoiy tarmog'idan foydalanish qoidalariga mustaqil ravishda rioya qiladi.

## 2. AKSIYA ISHTIROKCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**2.1.** OQ abonenti bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar, 18 yoshga to'lgan Foydalanuvchilar Aksiyada ishtirok etishi mumkin.

**2.2.** Quyidagi shaxslar Aksiyada ishtirok etish va/yoki sovrin olishga da'vogarlik qila olmaydi:

- qonunchilikda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- maxsus vakolatli davlat organi tomonidan shakllantiriladigan terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishda ishtirok etayotgan yoxud ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar;
- Aksiya o'tkazilayotgan davrda Kompaniya bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ishlarni bajaradigan (xizmatlar ko'rsatadigan) jismoniy shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- Kompaniyaning affillangan shaxslari, Aksiya o'tkazilayotgan davrda Kompaniyaning affillangan shaxslari bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ishlarni bajaradigan (xizmatlar ko'rsatadigan) jismoniy shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari;
- Kompaniyaning ishonchli vakillari (dilerlari), Aksiya o'tkazilayotgan davrda ular bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan yoki fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida ishlarni bajaradigan (xizmatlar ko'rsatadigan) jismoniy shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari.

## 3. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

**3.1.** Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi kerak:

3.1.1. "OQ Mobile" mobil ilovasiga kirish.

3.1.2. "Media" bo'limidan "OQ Mem 2" bannerini tanlash va unga o'tish.

3.1.3. Quyidagi ma'lumotlarni ko'rsatib, ishtirokchi sifatida ro'yxatdan o'tish:

- familiyasi, ismi va otasining ismi;
- Instagram ijtimoiy tarmog'idagi nikneymi;
- telefon raqami.

3.1.4. Ushbu Qoidalar bilan tanishish va ularga, jumladan ushbu Qoidalarning 6-bo‘limiga muvofiq shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashga roziligini tasdiqlash.
3.1.5. Ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab G‘oliblar e’lon qilingunga qadar Kompaniyaning Instagram sahifasiga obuna bo‘lib turish.
3.1.6. Aksiya davomida Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi o‘z sahifasida Kompaniyaning Instagram sahifasini belgilagan holda Tanlov postini joylashtirish orqali "OQ"ni tug‘ilgan kuni bilan tabriklash. Ishtirokchi Tanlov posti sifatida tayyor memlar, GIF-animatsiyalardan foydalanishi yoki ushbu Qoidalarning 3.4 va 3.5-bandlariga rioya qilgan holda o‘ziga xos original kontent yaratishi mumkin.
3.1.7. Istagiga ko‘ra, ushbu Qoidalarning 3.7-bandida ko‘rsatilgan usullardan foydalanmagan holda Instagram ijtimoiy tarmog‘ining boshqa foydalanuvchilarini o‘z Tanlov postiga "Yoqdi" (layk) belgisini qo‘yish va izoh qoldirishga taklif qilish.
**3.2.** Tanlov posti Ishtirokchining Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi sahifasida Aksiyaning belgilangan davri davomida joylashtirilishi hamda G‘oliblar e’lon qilingunga qadar o‘chirilmasdan va o‘zgartirilmasdan ochiq holda (profil ochiq bo‘lishi kerak) saqlanishi lozim. Tanlov posti ro‘yxatdan o‘tishda nikneymi ko‘rsatilgan Instagram akkauntidan joylashtiriladi. Bitta Ishtirokchi faqat bitta Tanlov postini joylashtirishi mumkin. Bir nechta post joylashtirilsa, eng birinchi joylashtirilgani hisobga olinadi.
**3.3.** Aksiyada faqat ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha majburiy shartlarni bajargan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin.
**3.4.** Ishtirokchi joylashtirilgan Tanlov postining mazmuni uchun javobgar bo‘ladi va unda foydalanilgan materiallar uchinchi shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligini kafolatlaydi. Tanlov posti bilan bog‘liq uchinchi shaxslarning da’volarini Ishtirokchi mustaqil ravishda va o‘z hisobidan hal qiladi. Tanlov postini joylashtirish orqali Ishtirokchi Tashkilotchiga (Ishtirokchi ega bo‘lgan huquqlar doirasida) ushbu postdan Aksiya va uning natijalari haqida xabardor qilish maqsadida Kompaniyaning Instagram sahifasida, Telegram-kanalida va "OQ Mobile" ilovasida foydalanish, jumladan uni takrorlash, repost qilish va ommaga yetkazish uchun Aksiya tugagan sanadan boshlab 1 (bir) yil muddatga bepul, mutlaq bo‘lmagan huquq beradi.
**3.5.** Quyidagi materiallarni o‘z ichiga olgan Tanlov postlari Aksiyada ishtirok etishga qo‘yilmaydi:

- 18 yoshdan oshgan shaxslarga mo‘ljallangan materiallar va tasvirlar (18+);
- qo‘pol, odobsiz va haqoratli so‘z hamda iboralar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzuvchi materiallar;
- haqorat, kamsituvchi fikrlar yoki zo‘ravonlikka da’vatlarni o‘z ichiga olgan materiallar;
- uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzuvchi materiallar;
- boshqa shaxslarning roziligisiz olingan tasvirlari, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi ma’lumotlar;
- uchinchi shaxslarning, jumladan boshqa aloqa operatorlarining tovarlari (ishlari, xizmatlari) reklamasi;
- siyosiy yoki diniy mazmundagi materiallar.

**3.6.** Ushbu Qoidalar talablariga javob bermaydigan Tanlov postlari G‘oliblarni aniqlashda hisobga olinmaydi. Tashkilotchi bunday postni Aksiyaning istalgan bosqichida ishtirokdan chetlatishga haqli.

**3.7.** Ko‘rsatkichlarni hisoblashda quyidagi "Yoqdi" (layk) belgilari va izohlar hisobga olinmaydi: Ishtirokchining o‘zi, shu jumladan boshqa akkauntlari orqali qoldirganlari; avtomatlashtirilgan (bot) ekanligi yoki Ko‘rsatkichlarni sun’iy oshirish uchun yaratilganligi alomatlari mavjud akkauntlardan qoldirilganlari; haq evaziga, sun’iy ko‘paytirish xizmatlari, layk va izoh almashish yoki boshqa avtomatlashtirilgan vositalar yordamida olinganlari; bir foydalanuvchining bittadan ortiq takroriy yoki mazmunsiz izohlari (bir xil matn, belgilar to‘plami, alohida emojilar). Ko‘rsatkichlar sun’iy oshirilgani alomatlari aniqlansa, Tashkilotchi Tanlov postini Aksiyadan chetlatishga haqli.

## 4. G‘OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI VA SOVRIN JAMG‘ARMASI

**4.1.** Aksiya doirasida ishtirok etishning barcha shartlarini bajargan va Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi Tanlov postlarida tegishli Ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yuqori natijalarni qayd etgan Ishtirokchilar G‘olib deb topiladi.

**4.2.** G‘oliblarni aniqlashda Tashkilotchi tomonidan 2026-yil 19-noyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 23:59:59 holatiga qayd etilgan Tanlov postlari Ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

4.2.1. Ko‘rsatkichlar Tashkilotchi tomonidan Instagram ijtimoiy tarmog‘ida aks etgan ma’lumotlar asosida skrinshotlar va (yoki) ma’lumotlarni yuklab olish orqali qayd etiladi. Tafovutlar yuzaga kelganda, ushbu Qoidalarning 3.7-bandini hisobga olgan holda Tashkilotchi qayd etgan ma’lumotlar qo‘llaniladi.

**4.3.** G‘oliblar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-o‘rin — layklar + izohlar.

Tanlov posti "Yoqdi" (layk) belgilari va izohlarning eng yuqori umumiy sonini to‘plagan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

2-o‘rin — layklar.

1-o‘rinni egallamagan Ishtirokchilar orasida Tanlov posti eng ko‘p "Yoqdi" (layk) belgisini to‘plagan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

3-o‘rin — izohlar.

1- va 2-o‘rinlarni egallamagan Ishtirokchilar orasida Tanlov posti eng ko‘p izoh to‘plagan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

**4.4.** G‘oliblarni aniqlashda ushbu Qoidalar talablariga javob bermaydigan, jumladan 18+ toifasidagi materiallar, qo‘pol, haqoratli, kamsituvchi, odobsiz yoki boshqa taqiqlangan materiallarni o‘z ichiga olgan Tanlov postlari hisobga olinmaydi.

**4.5.** Agar ikki yoki undan ortiq Tanlov posti tegishli Ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir xil natija qayd etib, bitta sovrinli o‘ringa da’vogarlik qilsa, Tashkilotchi G‘olibni aniqlash uchun qo‘shimcha vaqt beradi. Qo‘shimcha davr davomiyligini Tashkilotchi belgilaydi. Ushbu davr yakunida tegishli Ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yuqori natija qayd etgan Tanlov posti egasi G‘olib deb topiladi. Agar ikki yoki undan ortiq Tanlov posti yana bir xil natija qayd etib, bitta sovrinli o‘ringa da’vogarlik qilsa, Tanlov postini oldinroq joylashtirgan Ishtirokchi G‘olib deb topiladi.

**4.6.** Bitta Ishtirokchi Aksiya doirasida faqat bitta sovrin olishi mumkin. Yuqoriroq sovrinli o‘rinni egallagan Ishtirokchi bir vaqtning o‘zida boshqa sovrinli o‘ringa da’vogarlik qilish imkonini beradigan Ko‘rsatkichlarni ham to‘plagan bo‘lsa, u faqat egallagan eng yuqori o‘rin bo‘yicha hisobga olinadi. Bunda tegishli sovrinli o‘rin tegishli Ko‘rsatkichlar bo‘yicha keyingi eng yuqori natijaga ega Ishtirokchiga beriladi.

**4.7.** Aksiya yakunlari 2026-yil 20-noyabrda chiqariladi.

**4.8.** G‘oliblar haqidagi ma’lumotlar Tashkilotchi tomonidan 2026-yil 20-noyabrda Kompaniyaning Instagram sahifasidagi Stories bo‘limida va Kompaniyaning rasmiy saytida G‘olibning Instagram nikneymi hamda egallagan sovrinli o‘rni ko‘rsatilgan holda joylashtiriladi.

**4.9.** Tashkilotchi natijalar e’lon qilingan sanadan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida G‘oliblarga ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan telefon raqami va (yoki) Kompaniyaning Instagram sahifasidan shaxsiy xabar orqali yutuq haqida xabar beradi. Tashkilotchi Ishtirokchilardan to‘lov, bank kartasi ma’lumotlari, SMS-kodlar yoki parollarni so‘ramaydi; bunday so‘rovlar yuborilgan xabarlar Tashkilotchiga tegishli emas.

**4.10.** Sovrin jamg‘armasi

Aksiya sovrin jamg‘armasiga quyidagi sovrinlar kiradi:

🥇 1-o‘rin
Apple iPhone 15, Black, 6/128 GB

🥈 2-o‘rin
Segway-Ninebot F25E II elektr samokati, Black

🥉 3-o‘rin
Samsung Galaxy A56, Awesome Graphite, 8/256 GB

**4.11.** Har bir G‘olib egallagan sovrinli o‘rniga mos sovrinni oladi.

**4.12.** Sovrinni uning puldagi ekvivalentiga yoki boshqa sovringa almashtirish mumkin emas. Sovrin yetkazib beruvchida ko‘rsatilgan model yoki rang mavjud bo‘lmasa, Tashkilotchi uni xuddi shunday maqsadga mo‘ljallangan, qiymati teng yoki yuqoriroq boshqa sovringa almashtirishga haqli.

## 5. SOVRINLARNI OLISH SHARTLARI

**5.1.** Sovrinni topshirish uchun Tashkilotchi G‘oliblar e’lon qilingan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida G‘olib deb topilgan Ishtirokchi bilan istalgan mavjud usul orqali bog‘lanadi. Shundan so‘ng G‘olib Kompaniyaga quyidagi hujjatlarning asl nusxalari va ma’lumotlarni taqdim etadi:

- G‘olibning pasporti yoki ID-kartasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida JSHSHIR mavjud bo‘lmagan hollarda tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport stolidan) olingan JSHSHIR ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma.

**5.2.** Agar G‘olib biror sababga ko‘ra sovrinni topshirish marosimida shaxsan ishtirok eta olmasa, u boshqa jismoniy shaxsga (ishonchli vakilga) taqdirlash jarayonida qatnashish va sovrinni olishga doir hujjatlarni rasmiylashtirish uchun tegishli ishonchnoma berishi mumkin.

**5.3.** Bunda ishonchli vakil quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- G‘olibning pasporti yoki ID-kartasi nusxasi;
- sovrinni olish hamda sovrinni olish bilan bog‘liq hujjatlarni imzolash huquqini beruvchi notarial tasdiqlangan ishonchnoma;
- ishonchli vakilning pasporti yoki ID-kartasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi ma’lumotlar bazasida JSHSHIR mavjud bo‘lmagan hollarda tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limidan (pasport stolidan) olingan JSHSHIR ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma.

**5.4.** Tashkilotchi ushbu Qoidalarning 5.1-5.3-bandlariga muvofiq G‘olib barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan paytdan boshlab 90 (to‘qson) kalendar kun ichida sovrinlarni topshirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

**5.5.** Tashkilotchi sovrinlarni G‘oliblarga topshirishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda soliqlarni (jumladan sovrin qiymatidan hisoblanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini) va yig‘imlarni mustaqil ravishda to‘laydi.

**5.6.** Sovrinni olayotganda G‘olib o‘zining shaxsiy ma’lumotlari va sovrin haqidagi to‘liq ma’lumotlar, jumladan uning QQS bilan birga qiymati ko‘rsatilgan barcha zarur hujjatlarni imzolashi shart.

**5.7.** Sovrin G‘olib barcha zarur hujjatlarni imzolaganidan so‘ng topshiriladi.

**5.8.** Sovrin O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Kompaniyaning rasmiy ofisida topshiriladi. Sovrinni topshirish uchun aniq ofis Tashkilotchi va G‘olib o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanadi.

**5.9.** Tashkilotchi quyidagi hollarda G‘olibga sovrinni topshirishni rad etish huquqini o‘zida saqlab qoladi:

- Tashkilotchi G‘oliblar e’lon qilingan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida G‘olib bilan bog‘lana olmasa.
- G‘olib yutuq e’lon qilingan sanadan boshlab 15 (o‘n besh) kalendar kun ichida ushbu Qoidalarning 5.1-5.3-bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ushbu Qoidalar va/yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga javob bermasa;
- G‘olib sovrinni olishda hujjatlarni imzolashdan va/yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega harakatlarni, jumladan talab etilgan hujjatlarni taqdim etishni bajarishdan bosh tortsa;
- Yutuq e’lon qilingan paytdan boshlab 7 (yetti) kalendar kun ichida G‘olibni sovrinni olish haqida xabardor qilish imkoni bo‘lmasa - G‘olibning raqami bloklangan va/yoki tarmoq qamrovidan tashqarida bo‘lsa yoxud Kompaniyaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra G‘olib qo‘ng‘iroqqa javob bermasa va/yoki aloqaga chiqmasa.
- G‘olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlari buzilgani aniqlansa.

## 6. SHAXSGA DOIR MA’LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SHARTLARI

**6.1.** Aksiyada ishtirok etish Ishtirokchining ushbu Qoidalarga roziligini anglatadi. Ro‘yxatdan o‘tishda ushbu Qoidalar bilan tanishganini tasdiqlash orqali Ishtirokchi

Tashkilotchiga o‘zining shaxsga doir ma’lumotlarini Aksiyani o‘tkazish, ishtirok etish shartlariga rioya etilishini tekshirish, G‘oliblarni aniqlash, xabardor qilish va e’lon qilish, sovrinlarni topshirish, Ishtirokchilarning murojaatlarini ko‘rib chiqish, shuningdek Tashkilotchining O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarish maqsadida qayta ishlashga rozilik beradi.

**6.2.** Quyidagi shaxsga doir ma’lumotlar qayta ishlanadi: familiya, ism, otasining ismi, telefon raqami, Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi nikneym va Tanlov posti haqidagi ma’lumotlar; G‘oliblar va ularning vakillariga nisbatan esa shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari hamda JSHSHIR ham qayta ishlanadi. Qayta ishlash ma’lumotlarni yig‘ish, yozib olish, tizimlashtirish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, egasizlantirish, bloklash va yo‘q qilishni, jumladan avtomatlashtirilgan vositalardan foydalanishni, shuningdek ushbu Qoidalarning 4.8-bandida nazarda tutilgan hajmda tarqatishni o‘z ichiga oladi.

**6.3.** Tashkilotchi Aksiyani tashkil etish va sovrinlarni topshirishga jalb qilingan shaxslarga shaxsga doir ma’lumotlarni qayta ishlashni ularning maxfiyligi va xavfsizligini ta’minlash majburiyatini yuklaydigan shartnoma asosida topshirishga, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda shaxsga doir ma’lumotlarni davlat organlariga taqdim etishga haqli. Shaxsga doir ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi hududida qayta ishlanadi va saqlanadi.

**6.4.** Ishtirokchilarning shaxsga doir ma’lumotlari Aksiya davomida va u tugaganidan keyin 6 (olti) oy mobaynida, G‘oliblarning shaxsga doir ma’lumotlari esa soliq qonunchiligida belgilangan muddatlar davomida qayta ishlanadi. Ishtirokchi Tashkilotchiga tegishli murojaat yuborish orqali shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga bergan roziligini qaytarib olishga haqli; sovrin topshirilishidan oldin roziliking qaytarib olinishi Aksiyada ishtirok etishning to‘xtatilishiga olib keladi.

**6.5.** Tashkilotchidan OQ xizmatlari va takliflari, jumladan reklama mazmunidagi axborotni olishga rozilik Ishtirokchi tomonidan ro‘yxatdan o‘tishda alohida beriladi va Aksiyada ishtirok etish sharti hisoblanmaydi. Sovrin topshirilayotganda G‘olibni foto va videoga olish, shuningdek uning ismi va tasvirini Kompaniyaning Instagram sahifasi va Telegram-kanalida joylashtirish faqat G‘olibning alohida yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.

## 7. YAKUNIY QOIDALAR

**7.1.** G‘oliblar biror sababga ko‘ra sovrinlarni talab qilmagan yoki ularni olishdan bosh tortgan taqdirda, talab qilinmagan sovrin Kompaniya mulkida qoladi.

**7.2.** Ishtirokchi ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan barcha talab va shartlarni bajarmagan, shuningdek Aksiyada asossiz ustunlikka erishishga qaratilgan firibgarlik, huquqni suiiste’mol qilish yoki boshqa insofsiz harakatlar alomatlari aniqlangan hollarda Tashkilotchi Ishtirokchiga sovrin berishni rad etishga haqli.

**7.3.** Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar emas:

- telekommunikatsiya va elektr tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlar harakati, shuningdek Tashkilotchining dasturiy va/yoki apparat majmuasiga ruxsatsiz kirish va/yoki uni ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning insofsiz harakatlari oqibatida majburiyatlar bajarilmagani yoki lozim darajada bajarilmagani;

Yuqoridagi holatlar yuzaga kelganda, Tashkilotchi o‘z texnik tizimlarida paydo bo‘lgan xatolar, uzilishlar va nosozliklarni bartaraf etish muddatlari hamda sanalarini mustaqil belgilash huquqini o‘zida saqlab qoladi;

- Ishtirokchilar Kompaniyaning rasmiy saytida, "OQ Mobile" ilovasida va/yoki Kompaniyaning Telegram-kanalida / Instagram sahifasida joylashtirilgan G‘oliblar ro‘yxati bilan tanisha olmagani;
- Ishtirokchilarning o‘z aybi bilan yoki Ishtirokchi va/yoki Kompaniyaning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan boshqa sabablarga ko‘ra sovrinlarni olish uchun zarur ma’lumotlar/hujjatlar olinmagani yoki o‘z vaqtida olinmagani;
- Ishtirokchilar ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan talablarni bajarmagani (o‘z vaqtida bajarmagani);
- G‘oliblar sovrinlarni talab qilmagani yoki ulardan voz kechgani sababli sovrinlarni olmagani;
- uchinchi shaxslarning aybi va/yoki yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari sababli G‘oliblarga sovrinlarni topshirish bo‘yicha majburiyatlarni bajarish imkoni bo‘lmagani;
- Instagram ijtimoiy tarmog‘ining ishlashi, jumladan Ishtirokchilarning akkauntlari va postlariga kirishning bloklanishi yoki cheklanishi, postlarni ko‘rsatish algoritmlari hamda "Yoqdi" belgilari va izohlarni aks ettirish tartibining o‘zgarishi.

**7.4.** Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi:

- ushbu Qoidalar bilan to‘liq tanishganini va ularga roziligini tasdiqlaydi;
- ushbu Qoidalarning 6-bo‘limiga muvofiq shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga roziligini tasdiqlaydi.

**7.5.** Aksiyani o‘tkazish masalalari bo‘yicha Ishtirokchilarning murojaatlari 2020 telefon raqami orqali qabul qilinadi va Tashkilotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqiladi.

**7.6.** Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi kerak. Nizo yuzaga kelgan sanadan boshlab 60 (oltmish) kalendar kun ichida tinch yo‘l bilan kelishuvga erishilmasa, nizo Toshkent shahrining fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudida ko‘rib chiqilishi lozim.

**7.7.** Sovrinlarga kafolatli xizmat ko‘rsatish ishlab chiqaruvchi (vakolatli servis markazlari) tomonidan ishlab chiqaruvchining kafolat shartlari asosida amalga oshiriladi. Sovrinni olayotganda G‘olib undagi ko‘rinib turgan nuqsonlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasida ko‘rsatishga haqli. Sovrin topshirilganidan so‘ng G‘olibning sovrindan foydalanish yoki uni saqlash qoidalarini buzishi, uchinchi shaxslarning harakatlari yoki yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari oqibatida yuzaga kelgan nuqsonlar uchun Tashkilotchi javobgar emas.

**7.8.** Tashkilotchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda istalgan vaqtda ushbu Qoidalarga bir tomonlama o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritishga, shuningdek Aksiyani to‘xtatib turishga, tugatishga yoki bekor qilishga haqli. Aksiya boshlanganidan keyin Ishtirokchilar ahvolini yomonlashtiradigan, jumladan sovrin jamg‘armasini kamaytirish va G‘oliblarni aniqlash tartibini o‘zgartirishga qaratilgan o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi, qonunchilik yoki vakolatli organ ko‘rsatmasi buni talab qiladigan hollar bundan mustasno.

**7.9.** Ushbu Qoidalarga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritilishi, shuningdek Aksiyaning to‘xtatib turilishi, tugatilishi yoki bekor qilinishi haqida Ishtirokchilarga tegishli axborotni Tashkilotchining rasmiy saytida va (yoki) boshqa rasmiy axborot resurslarida joylashtirish orqali xabar beriladi.

**7.10.** Ishtirokchilar ushbu Qoidalarga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni mustaqil ravishda kuzatib boradi. Tegishli o‘zgartirishlar e’lon qilinganidan keyin Aksiyada ishtirok etishni davom ettirish Ishtirokchining ushbu o‘zgartirish va qo‘shimchalarga roziligini anglatadi.

**7.11.** Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha masalalarda Tashkilotchi va Aksiya Ishtirokchilari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladi.

## 8. TASHKILOTCHINING REKVIZITLARI:

**"UNITEL" mas’uliyati cheklangan jamiyati**

**Yuridik manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, 100164,
Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Tepamasjid ko‘chasi, 4-uy

**STIR:** 201 838 002;

**MFO:** 00450;

**IFUT:** 61200;

**Telefon:** +998 20 002 20 20 / 2020

Kompaniya sayti: https://oq.uz/